

**YANGI O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK
FAOLIYATINING SHAKLLANISH VA KENGAYISH TENDENSIYALARI**

Tadqiqotchi

Abduvaxobov Shohijahon Muxammadjonovich

+998944118906

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Mamlakatda mazkur sohalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar, huquqiy va moliyaviy muhitda yuz berayotgan islohotlar hamda ularning tadbirkorlik sub’yektlarining o‘sinh sur‘atlariga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, modernizatsiya, mahsulot, marketing.

Abstract: This article analyzes the development directions of small business and private entrepreneurship in the context of New Uzbekistan. It explores the socio-economic significance of these sectors, the government’s incentive measures, ongoing reforms in the legal and financial environment, and how these factors influence the growth dynamics of entrepreneurial entities.

Keywords: Small business, entrepreneurship, economy, production, modernization, product, marketing.

Аннотация: В данной статье анализируются направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях Нового Узбекистана. Научно исследуется социально-экономическое значение этих сфер, стимулирующие меры, предпринимаемые государством, реформы, происходящие в правовой и финансовой среде, а также их влияние на темпы роста субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательство, экономика, производство, модернизация, продукция, маркетинг.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi asosiy omillardan biri — kichik va xususiy tadbirkorlik sub’yektlaridir. Ushbu sektor nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki iqtisodiy faoliyatning hududiy diversifikatsiyasini ta’minlash, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ichki bozorda raqobat muhitini kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekistonda ushbu sub’yektlar sonining yildan-yilga ortib borayotgani, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining barqaror o‘sishi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va tashqi savdo sohalaridagi

faolligi mazkur yo‘nalishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, soliq va kredit imtiyozlari, hududiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ushbu sub’yektlar uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi, ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri baholanadi. Tadqiqot orqali mazkur sektorning hozirgi holati, asosiy dinamikasi, tarmoqlar bo‘yicha faolligi va iqtisodiyotdagi o‘rni aniqlanadi, shuningdek, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish rejalashtirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Haydarov [3] muallifligidagi monografiyada O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari va uning milliy iqtisodiyot barqarorligidagi roli chuqur tahlil qilingan. Muallif kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga mamlakatdagi iqtisodiy muhit, qonunchilik bazasi, soliq tizimi hamda moliyaviy infratuzilmaning ta’sirini atroflicha yoritgan.

R. Mullajonov [4] tadqiqotida mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning o‘rni keng o‘rganilgan.

Z. Rasulov [5] maqolasida tadbirkorlik subyektlari rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Tadbirkorlikning iqtisodiy o‘rishni jadallashtirish va aholi bandligini oshirishdagi ahamiyati empirik ma’lumotlar asosida yoritilgan.

D. Raxmonov [6] tadqiqotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda institutsional omillar, xususan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati, iqtisodiy islohotlarning ta’siri, qonunchilik bazasining takomillashuvi hamda biznes muhitni yaxshilash masalalari batafsil tahlil qilinadi.

S. Abdullayeva [7] o‘z tadqiqotida innovatsion tadbirkorlik faoliyatining O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Muallif mamlakatdagi innovatsion muhit va uning tadbirkorlik rivojidagi o‘rnini o‘rganadi. Shuningdek, innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llariga e’tibor qaratib, iqtisodiy o‘rishni tezlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Yangi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga doir tadqiqotlar ko‘p yillik ilmiy ishlar va amaliy tajribalar natijasida shakllangan. Adabiyotlar sharhida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va izlanishlar tahlil qilinadi.

TADQIQOTNING METODOLOGIYASI.

Tadqiqotning metodologik asosini tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qonun osti hujjatlari hamda me’yoriy-huquqiy asoslar tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-sonli qarori asosiy huquqiy manba sifatida tanlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Yurtimiz taraqqiyotida eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishi e'tirof etiladi. Shu bilan bir qatorda, ishsizlik darajasining pasayishi ham muhim ijtimoiy natija sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yutuqlarga erishishda tadbirkorlik sub'yektlarining hissasi beqiyosdir. Bugungi kunda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan va ularni rivojlantirishga xizmat qilayotgan asosiy harakatlantiruvchi kuch aynan tadbirkorlardir. Shu sababli ularga turli imtiyozlar, qulay sharoitlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar taqdim etilmoqda, bu esa ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini yanada kuchaytirmoqda.

Biroq, amaliy tajribaning yetarli emasligi ayrim salbiy oqibatlarga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida respublika iste'mol sektorida inflyatsiya darajasi 9,8 % ni tashkil etgan. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 2,4 % ga oshib, umumiy inflyatsiyaga 1,1 % darajasida ta'sir ko'rsatgan. Shu davrda nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari 7,7 % ga qimmatlashib, inflyatsiya ko'rsatkichining 2,5 % ga o'sishiga sabab bo'lgan. Xizmatlar sektori esa 26,7 % ga qimmatlashib, inflyatsiyani yana 6,2 % ga oshirishda ishtirok etgan.

Bundan tashqari, turar joy xizmatlari, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa yonilg'i turlarining narxlaridagi o'zgarishlar 2024-yil dekabr oyida, 2023-yil dekabriga nisbatan, yig'ma iste'mol narxlari indeksiga (INI) 4,57 % darajasida ta'sir ko'rsatgan. Bu esa umumiy tovar va xizmatlar narxlari o'zgarishining 45 % dan ortig'ini tashkil etgan. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining o'zgarishi esa INI ko'rsatkichiga 0,82 % darajada ta'sir qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa sohalar tahliliga ko'ra, sog'liqni saqlash (20,7 %), ta'lim (14,0 %), restoranlar va mehmonxonalar (12,2 %), transport, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari (10,8 %), maishiy xizmatlar (10,0 %) hamda dam olish, sport va madaniyat (8,7 %) yo'nalishlaridagi narx oshishlari yig'ma INI darajasini jami 3,59 % ga oshirishga sabab bo'lgan.

Tadbirkorlik faoliyati, odatda, investitsiyalarni jalb etish bilan boshlanadi. Shu nuqtai nazardan, asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va tarkibining statistik tahlili katta amaliy va tahliliy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning chuqur anglanishini ta'minlaydi.

2024-yilning yanvar–dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 493 652,0 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 127,6 foizga oshgan.

Mazkur ko'rsatkich tarkibiy jihatdan quyidagicha taqsimlangan:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ya’ni korxonalarning ichki mablag‘lari – 17,6 %;
- O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi jalb etilgan xorijiy kreditlar – 4,8 %;
- tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz resurslari – 2,6 %;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 62,8 %, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zi – 30,5 %;
- aholining investitsiya shaklidagi shaxsiy mablag‘lari – 6,5 %;
- Respublika budjetidan ajratilgan investitsiyalar – 4,6 %;

Iqtisodiyot rivojining yana bir muhim yo‘nalishi bu – chakana savdo tovar aylanmasidir. 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 403 431,8 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 9,9 % ga oshgan.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirishga qaratilgan yangi biznes yo‘nalishlari shakllantirildi, yoshlarni jalb qilish hamda ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalari ilgari surildi. 2017–2021-yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasi” ishlab chiqildi. Mazkur strategiya uchun bo‘limida kichik biznes ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

2017-yildan boshlab iqtisodiyotni rag‘batlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat korxonalari tashkil etildi. Bugungi kunga kelib, ularning soni respublika miqyosida 70 dan ortiqni tashkil etmoqda. Ushbu islohotlarning izchilligini ta‘minlash maqsadida “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” ishlab chiqildi. Unda savdo va yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha 130 ta zamonaviy bozor va savdo majmualari, shuningdek, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini kengaytirish maqsadida 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish vazifasi belgilangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda rivojlangan davlatlar tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallik bilan rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuvning asosiy sabablari quyidagicha izohlanadi:

Kichik biznes ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan ta‘minlashda muhim omil bo‘lib, aholining kundalik ehtiyojlarini tez va moslashuvchan tarzda qondirish imkonini yaratadi.

Soha bozordagi talab va kon‘yunktura o‘zgarishlariga tez moslasha olish qobiliyati bilan ajralib turadi, bu esa uni iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida barqaror faoliyat yurituvchi tizimga aylantiradi.

Kichik tadbirkorlik sub‘yektlarini tashkil etish va yuritish ko‘p hollarda katta hajmdagi kapital talab etmaydi, bu esa keng aholini biznesga jalb qilishda muhim ustunlik hisoblanadi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ham kichik biznes sub'yektlari nisbatan kam zarar ko'radi va tezda tiklanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularning moslashuvchanlik darajasi yuqori bo'lib, bozor muhitidagi keskin o'zgarishlarga nisbatan chidamliligi kuchlidir.

Nihoyat, kichik biznes nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki fuqarolarning ijodiy salohiyati, tashabbuskorligi va intellektual resurslarini ro'yobga chiqarish uchun muhim platforma sifatida qaraladi. Shu jihatdan, u jamiyatda ijtimoiy faollikni rag'batlantiruvchi va bandlikni oshiruvchi vosita sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi, balki aholi bandligi va farovonligini ta'minlashdagi ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda, ushbu sohani qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy etilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy-iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirishni ko'zda tutish. Tizimlarni joriy etish uchun kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga, resurslarni tejashga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlardan foydalanamiz.

Bunda quyidagi hollarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

- tadbirkorlik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyat ko'nikmalari bo'yicha o'qitish;
- zamonaviy marketing va menejment texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- eksportga ko'maklashuvchi turli tashkiliy tuzilma va infratuzilmani jadal rivojlantirish;
- amaliyotga xalqaro standartlashtirish qoidalarini joriy qilish.

Yangi O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy subyektlarning eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida tabiiy-iqtisodiy salohiyat va resurslardan samarali foydalanish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini huquqiy tartibga solish va aholi bandligi darajasi va daromadlarini oshirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

3. Haydarov N.H. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari hamda istiqbollari. – Toshkent: e'Fan va texnologiyalar

nashriyoti, 2021. – 228 b.4. Rakhmonov D.A. O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning institutsional asoslari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020, No5. – B. 45–54.5. Rasulov Z.D. Tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirishning dolzarb muammolari. // Biznes ekspert, 2019, No2. – B. 18–25.6. Mullajonov B.S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligiga erishish masalalari. // Iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanish, 2022, No1. – B. 63–72.7. Abdullayeva S.A. Innovatsion tadbirkorlik va mamlakat iqtisodiy rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi. // Moliya va bank ishi, 2021, No3. – B. 29–36